

BAHOLOVCHI FRAZEOLOGIZMLAR SEMANTIKASI VA PRAGMATIK IMKONIYATLARI HAQIDA

Pardaev Zafar - dotsent, filologiya fanlari nomzodi,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti,
Samarqand, O'zbekiston
E-mail: pzafar441@gmail.com
Soibnazarova Rushana - 1-kurs talabasi
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti,
Samarqand, O'zbekiston

Annotatsiya: Mazkur maqola baho mazmunini ifodalovchi leksik – frazeologik vositalar tahliliga bag'ishlangan. Baho ifodalovchi frazeologizmlarni lingvopragmatikasini o'rganish alohida ahamiyatga ega. Frazeologizmlar sotsiolingvistika, psixolingvistika, etnolingvistika, lingvokulturologiya kabi bir qator zamonaviy soha mutaxassislarining tadqiqotlarida asosiy mavzulardan biri. Muloqot jarayonida obrazli-ekspressiv frazeologizmlarning namoyon bo'lishi, so'zlovchining adresat bilan emotsional munosabati kabi masalalarni o'rganish uchun ham muhim va dolzarb hisoblanadi. O'zbek badiiy matnida baho ifodalovchi frazeologik birliklarning turli sharoitlarda, muayyan tamoyillar asosida, har xil vaziyatlarda turli maqsadlar bilan semantik, pragmatik xususiyatlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: lingvopragmatika, baho, frazeologizm, ekspressiv baho, illokutiv nutqiy akt, perlokutiv akt, nutq vaziyati, predikat, komparativ frazeologizm, denotativ ma'no, konnotativ ma'no.

SEMANTICS OF EVALUATIVE PHRASEOLOGISMS AND ABOUT PRAGMATIC POSSIBILITIES

Annotation: This article is associated to a lexicon -phraseological tools that complements the evolution content. Evolution participants has the service of studying the lingual-pragmatics of phraseologisms. Phraseologisms such as socialinguistics, psycholinguistics, ethnolinguistics, is one of the main topics on the system of modern external factorology. In the process of communication figurative-manifestation of expressive phraseology is also important and relevant to study on issues such as emotional relationship with addressee of the speaker. Phraseological units expressing evaluation in Uzbek artistic text has been studied in different conditions, based on certain principles semantic, pragmatic features with different purposes in situations.

Key words: linguo-pragmatics, assessment, phraseologism ,expressive assessment, illocutionary speech act, perlocutionary act, speech situation, predicate, comparative phraseology, denotative meaning, connotative meaning.

Baho – bu tabiiy va ijtimoiy olam qadriyatlarini anglash vositasi va shu bilan birga voqelik faktlariga inson tomonidan o‘z shaxsiy-individual qiziqishlari hamda manfaatlarini nuqtai nazaridan ahamiyatini belgilashdir. Baho ifodalashda faol ishtirok etuvchi lisoniy vositalardan biri frazeologizmlar hisoblanadi. Frazeologizmlar o‘zining funksional-semantik xususiyatlariga ko‘ra ham baho ifodalash xususiyatiga ega bo‘lgan boshqa lisoniy vositalardan ajralib turadi. Ularning nutq jarayonida o‘rinli, maqsadga muvofiq holda qo‘llanishi esa pragmatik (hosila) ma‘nolarning vujudga kelishi bilan bog‘liq.

Pragmatika tilshunoslikning nazariy va amaliy tarmoqlaridan biri sifatida insonning ijtimoiy faoliyatini o‘zida mujassamlashtirgan nutqiy jarayon, nutqiy vaziyat ta‘siri bilan namoyon qo‘llanuvchi kommunikativ niyat bilan bog‘liq tushunchalarni o‘rganadi. Pragmatika nutqiy aktning bevosita matn (kontekst) bilan munosabatini o‘rganadi. Nutqiy akt bilan kontekst (matn) o‘rtasidagi o‘zaro xilma-xil munosabat pragmatikaning asosiy o‘rganish obyekti sanaladi [1:55].

Ma‘lumki, tildagi frazeologik birliklarni so‘zlar kabi nomlovchi va baholovchi xususiyatlarga ajratish mumkin. Frazeologizmlarda nomlashdan ko‘ra, baholash imkoniyati ancha yuqori turadi. Bunday frazeologizmlarda atash – denotativ ma‘no, tasvirlash – konnotativ ma‘no bilan uzviy aloqada bo‘ladi. Konnotativ ma‘no yozuvchi yoki so‘zlovchining munosabatini ifodalovchi so‘z semantik strukturasiining bir qismi sanaladi. So‘zlovchining ichki kechinmalarini ifodalovchi va tinglovchining hislariga ta‘sir qiluvchi narsa ham xuddi ana shu holat bilan belgilanadi. Baholovchi frazeologizmlar strukturasiidagi emotsionallik ham, ekspressivlik ham nutq jarayonida ta‘sirchanlikni ta‘minlovchi asosiy elementlar sanaladi. Aynan frazeologizmlarni lisoniy birliklardan farqli holda obyektiv reallikdagi muayyan voqea-hodisani nomlash uchun emas, balki unga nisbatan modal munosabatni ifodalash maqsadida yuzaga kelishi ham shu bilan belgilanadi.

Badiiy adabiyot tili uchun ekspressivlik - obrazlilikning eng yuqori darajasi. Bunga til birliklarini (leksik, sintaktik, morfologik, fonetik) mahorat bilan qo‘llash orqali erishish mumkin. Emotsiya inson tomonidan obyektiv haqiqatni anglash jarayonida til, so‘zlar orqali aks etadi. So‘zlovchi insonning ruhiy, axloqiy, intellektual xususiyatini, xatti-harakatlarini baholashda frazeologizmlarga ham murojaat qilinadi.

Badiiy nutqda baholash vazifasiga ega bo‘lgan iboralar metaforalar va o‘xshatishlar bilan bir qatorda obrazlilik hosil qilishga bo‘ysundiriladi: «Qarshisida qadah, ushlab, yolborib turgan yigit respublikaning eng atoqli, eng o‘ktam, **pichog‘i keskgir, qo‘li uzun** kishilaridan edi» (S.Ahmad).

Tilimizda o‘xshatish obrotlar asosida yuzaga kelgan iboralar obrazliliigi bilan ajralib turadi: «tomdan tarasha tushganday», «bir qoshiq suv bilan yutguday», «oyog‘i kuygan tovuqday», «uzukka ko‘z solganday», «xamirdan qil

sug'urganday», «it bilan mushukday», «yog' tushsa yalaguday», «og'ziga tolqon solganday», «osmondan tushganday», «to'ygan qo'ziday» kabilar. Bunday birliklar tilshunoslikda komparativ frazeologik birliklar deb yuritiladi[2:36]. Erkin birikmalarni ko'chma, frazeologik ma'noda qo'llash asosida yuzaga kelgan iboralar ayniqsa kuchli obrazli xususiyatga ega. Bunday iboralar badiiy nutqda jonli metaforalardek tasavvur uyg'otadi:

- Ana yigitning guli, **omadi kelgan odamning xo'rozi ham oltin tuxum tug'ib tashlayveradi.** (Tilovoldi Jo'raev) Shuningdek, xalq fantaziyasi, mushohadasining mahsuli bo'lgan «po'stagini qoqmoq», «ilon po'st tashlaydi», «podadan oldin chang chiqarmoq» singari iboralar ham shunday obrazli ifodalash uchun xizmat qiladi.

So'zlovchining voqelikka nisbatan sub'ektiv bahosi salbiy yoki ijobiy munosabatda bo'lishi mumkin.

Ijobiy ottenkali baho frazeologizmlarda quyidagi munosabat ma'nolari ifodalanadi:

a) **xursand ma'no munosabati ifodalanadi:** Kanizaning mavqei o'sib, viqor bilan boshlab borishi, qaynona va qaynotasining **boshi osmonda, o'zlarini qaerga qo'yishni bilmay**, qayta-qayta to'shak, yakandoz solganlari, boobro' kuyovlarining **ko'ngli tog'day o'sganligi ko'rinib ketdi.** (Tilovoldi Jo'raev)

b) **erkalash munosabati:**- O'sha qaynotangda, **qurib ketgur**, beldor, polvon yigit edi-da, bir kuni qurtga mayda barg terib yursam, ro'paramdan chiqib qoldi, **bir sinab ko'ray** dedim. (Tilovoldi Jo'raev)

v) **kuchaytirish ma'nosi:** U Kanizaning **suq yonayotgan ko'zlarini** ko'rib xavotiri yana oshdi.(Tilovoldi Jo'raev)

Salbiy ottenkali baho frazeologizmlarda quyidagi munosabat ma'nolari ifodalanadi:

a) **qarg'ish:**“**Iching yonmay o'l-a!**” zimdan bir nigoh tashlab o'yladi Kaniza.(Tilovoldi Jo'raev); **O'lsin, og'zini suvi oqmay**, baytal ko'rmagan ayg'irga o'xshaydi-ya, dedi Kaniza. (Tilovoldi Jo'raev); -Bosib olgan bug'doyizi gapirmaysiz? Imi-jimida sotib, ho' ajlaho o'g'illarizi **domiga tiqyapsiz**, bitta kenja qiz **o'libgina ketsin**, ko'ziga yosh oldi Kaniza. (Tilovoldi Jo'raev)

b) **xushomad ma'nosi** : - Hay, hay, hay, suf, **ko'z tegmasin-yey, tishga bosadigan bo'lib ketibsiz-a**, - suyildi, - palak tozada, palak. So'ng Kanizaning yangi tovusini silarkan, qo'shimcha qildi:-Hay, hay, **ko'z tegmasin-a**, tuf-tuf! (Tilovoldi Jo'raev)

v) **kinoya:** Mana shu qora mag'iz qishloqini poshshomizning ko'ngillari tusab qolibdi. (Tilovoldi Jo'raev)

Cho'lponning “Kecha va kunduz” romanida Xadichaxon, Poshshaxon va Fazilatning suhbatlari jarayonida Xadicha va Poshshoxonlarning ko'z harakatlari orqali kichik kundoshlari Sultonxonga munosabatini shunday mahorat bilan tasvirlaganki,

ularning qalbidagi bor his-tuyg'ulari, orzu-istaklari noverbal vositalar (ko'z harakatlari) orqali ifoda etilayotganini kishi ko'z o'ngida namoyon etadi:

Ikkala kundoshning **ko'zlari** birdaniga, o'g'il ko'rganini xabar olgan otaning ko'zlariday, ravshan bir olov bilan **charaqladi**. Bu misolda Cho'lpon o'xshatish orqali ikkala kundoshga ijobiy baho berish bahonasida ular ko'zlarining charaqlashlari Sultonxonga nisbatan salbiy baho ekanligini yashirin tarzda ko'rsatadi. Yoki ko'z yordamida bir-birlariga sevinchli xabar berishlari, qutlashlari ikkala katta kundoshlarning o'zaro munosabatlarida ijobiy baho ma'nosini ifoda etsa, shu bilan birga ularning Sultonxonga yana salbiy bahosini ham namoyon etmoqda. Lahza tasviri yakunida ikki kundoshning o'sha ayyor ko'zlari bilan bir-birlariga qarashi, quvonishlari orqali Sultonxonga salbiy bahosining hidi sezilib turibdi.

Shuningdek, «hushi boshidan uchmoq», «gapi qochmoq», «sevinchi ichiga sig'madi», «yuragida ot o'ynamoq», «sichqonning ini ming tanga bo'ldi», «ko'ngli joyiga tushmaslik», «boshi toshga tegdi» singari **ikki bosh bo'lakli sodda gap modelidagi iboralar** og'zaki so'zlashuv nutqida, badiiy va publitsistik asarlarda baholash-aniqlash, xarakterlash funksiyasini reallashtiradi: «Bo'taboy qo'shiqqa quloq solib ancha vaqtgacha uning xarakterlaridan **ko'z uzolmay qoldi**. Devor mingan bu yigitning yuragida ot uynaydi» (S.Ahmad)

Ekspressivlik munosabati doim semantik xarakterga ega. Ekspressivlikni bunday izohlash bema'lol frazeologiyaga ham tadbiiq qilinishi mumkin, chunki «frazelogizmlar nominativ ma'no va qo'shimcha ottenkalarning ajralmas birligidan iborat bo'lgan maxsus nutqiy figuralardir. Frazelogizmlarning ko'pchiligi nutqda ma'lum uslubiy maqsadlar, ayniqsa, ekspressivlik uchun xizmat qiladi» [3:88]. Ko'pgina frazemalarning semantik strukturasi kuchaytiruv semasi ularning ekspressivligini ko'rsatishga vosita bo'ladi. Bunday iboralarning ma'nosini, semantik strukturasi aniqlashda «juda, g'oyat, kuchli, eng» kabi kuchaytiruv so'zlaridan foydalaniladi. Masalan, quyidagi frazemalar kuchaytiruv semasiga ega, ular ekspressiv funktsiya bajarishi bilan ajralib turadi: «oralaridan qil ham o'tmaydi» - juda inoq; «tilni yoradi» - ta'mi nihoyatda shirin: «ichidan qirindi o'tib ketdi» - qattiq tashvishlandi; «yog' tushsa yalaguday - niqoyat darajada toza, ozoda»; «ko'ziga dunyo qorong'ilashdi» - qattiq xafa bo'ldi; «o'pkasi og'ziga tiqilib» - ortiq darajada hayajonlanib; «yuk ham bo'lmaydi» - nihoyatda oz, kam; «yutaman deydi» - juda vahimali, ko'rqinchli kabilar. Lekin shuni ham unutmaslik zarurki, FB'larning ekspressivligi faqat ularning semantik strukturasi kuchaytiruv ottenkasining mavjudligiga bog'liq emas. Shunga ko'ra, ekspressivlikni faqat **semantik kategoriya** deb hisoblab bo'lmaydi. Masalan, ibora tarkibidagi fonetik, leksik va grammatik o'zgarishlar ekspressivlik darajasining kuchayishiga sabab bo'ladi va pragmatik yuk oladi:

a) **фонетик o'zgarish tufayli ekspressiv baho** munosabatining kuchayishi: sochi tikka bo'ldi - sochi tip-tikka bo'ldi; ko'ngli qora - ko'ngli qop-qora; ko'ngli toza - ko'ngli top-toza; joni chiqib-ketdi - jon-poni chiqib ketdi kabilar;

b) **grammatik o'zgarish tufayli ekspressiv baho** munosabatining kuchayishi: nafasi ichiga tushib ketdi - nafaslari ichiga tushib ketdi; ko'zi qiymaydi - ko'zlari qiymaydi - ko'zginasi qiymaydi; ko'zining paxtasini chiqarmoq - ko'zlarining paxtasini chiqarmoq kabilar;

v) **leksik o'zgarish tufayli ekspressiv baho** munosabatining kuchayishi: ko'ngliga urmoq - ko'ngliga zig'ir yogday, urmok; ko'kragi ko'tarildi - ko'kragi tog'day ko'tarildi; ko'zi to'rt bo'lib - ikki ko'zi to'rt bo'lib: ko'zi ochildi - ko'zi moshday ochildi; ko'ziga ko'rinmaslik -ko'ziga oq-qora ko'rinmaslik; jigari ezildi - jigar-bag'ri ezildi; ichi yorilguday bo'ldi; - ichi tars yorilguday bo'ldi; jigaridan urmoq - jigar-bag'ridan urmoq; kovushini to'g'rilamoq - kovushiki to'g'rilab qo'ymoq; ichini yemoq - ich-etini yemoq kabilar.

To'g'ri, frazeologizmlarning ekspressivlik vazifasi leksemalar ekspressivligidan farq qiladi. Frazeologizm tilning estetik vazifasi namoyon bo'ladigan eng yorqin elementlardan biridir. Frazeologizmlar «ekspressiyani vujudga keltiruvchi eng muqim vositalardan biri» sifatida maydonga chiqadi. Shuning uchun umumiy metaforik ma'noli («qo'li gul», «oq oltin» kabi) iboralar va emotsionallik xarakterli bo'lgan («tili tutildi», «baxtini bersin» singari) iboralar tilimizning eng yorqin ekspressiv vositalari hisoblanadi.

Ekspressiv baho munosabati ko'pgina iboralarning ajralmas tarkibiy qismi sanaladi. Shuning uchun iboralarning ekspressivlik manbalari faqat obrazlilik, emotsionallik va kuchaytiruv semasi bilan cheklanib qolmaydi, balki pragmatik ma'nolarni ifodalaydi. Professor B.Yo'ldoshev yana quyidagi vositalarni ham iboralar tarkibida uning ekspressiv baholash vazifa bajarishini ko'rsatib bergan[4:71]:

a) antiteza asosida qurilgan iboralar: «na o'lik, na tirik», «bir oyog'i yerda, bir oyogi go'rda»; g'am bo'yinga bog'langan tosh bo'lsa, quvonch yelkadan o'sib chiqqan qanot» kabilar;

b) qofiya asosiga qurilgan iboralar: «ishni qiladi Eshmat, lofni uradi, Toshmat», «yo xud, yo bexud», «ipak ko'ylakka chit yoqa» kabilar;

v) giperbola va litota asosiga qurilgan iboralar: «oyog'i olti, ko'li yetti bo'lib», «jonini jabborga berib», «ikki dunyo bir qadam», «suv qilib ichmoq» kabilar;

g) so'z o'yini asosiga qurilgan iboralar: «qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi», «oyog'ini to'rtta qilib qo'ymoq», «axmoqqa to'qmoq» kabilar.

Ko'rinadiki, iboralarning asosiy qismi ekspressiv yo'nalishning mavjudligi bilan xarakterlanadi. Lekin ularning uslubiy qo'llanishi faqat ekspressiv vazifa bajarish bilan cheklanmaydi. O'zbek tili frazeologik tizimida uslubiy ma'noli iboralarning xarakterli

belgisi bir vaqtning o'zida bir necha uzual va okkazional ma'no ifodalashi hamda pragmatik vazifalarni bajarishdir.

Umuman olganda, frazeologizmlar so'zlovchining sub'ektiv munosabatini, fikrini obrazli ifodalashda muhim vosita hisoblanadi. Albatta, frazeologizmlarni kognitiv, stilistik va pragmatik vazifa bajarishi kabi imkoniyatlari muloqot jarayonida, ya'ni nutq matnida aniqlanadi, iboralarning lug'atlarda beriladigan holati bilan nutq tarkibidagi faoliyati o'rtasida tenglik yo'q. Iboralar matnda o'z ma'no nozikliklarini kengaytiradi, ko'p ma'noli iboraga aylanadi, ularning komponent tarkibi va ma'nosida o'zgarish, siljish sodir bo'ladi hamda turli xil ma'no pragmatik vazifalarni ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Нурмонов А., Ҳақимов М. Лингвистик прагматиканинг назарий шаклланиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 2001, 4-сон, -В. 55.
2. Гизатова Г.К. Компаративные фразеологические единицы современного татарского литературного языка, 1983. - С. 36.
3. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули. – Тошкент: Фан, 1987. – Б.88.
4. Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари.- Самарқанд. 1999, -Б.71.